XALQ DEPUTATLARI SAMARQAND VILOYATI SAMARQAND SHAHAR KENGASHI QARORI

2023 - yil 31 - may VI-86-89-7-107-K/23 Samarqand shahar hokimligi

Samarqand shahar mahalliy byudjetining qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risida

2023-yil I chorak yakuni bilan daromadlar rejasini orttirib bajarilgan qismi hisobidan hamda shahar mahalliy byudjetining 2023-yilda shakllangan qo‘shimcha manbalari mablag‘laridan foydalanish yuzasidan shahar hokimligi bosh hisobchisi (D.Tursunova) va shahar Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (B.Mamadaliyev)ning 2023-yil 15-maydagi bildirishnomasini inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasiga asosan, xalq deputatlari shahar Kengashining navbatdagi VI chaqiriq, LXXXVI sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Shahar hokimligi bosh hisobchisi (Tursunova) va shahar Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (Mamadaliyev)larning 2023-yil 15-maydagi shahar mahalliy byudjetining 2023-yilda shakllangan qo‘shimcha manbalari mablag‘laridan foydalanish to‘g‘risidagi takliflari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Shahar mahalliy byudjetining 2023-yil 1-yanvar holatiga hosil bo‘lgan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan jami 2 ta tadbirlar uchun 433 300,0 (to`rt yuz o`ttiz uch million uch yuz) ming so‘mlik mablag‘lar ilovaga muvofiq shahar hokimligiga ajratilsin.

3. Shahar hokimligi bosh hisobchisi (Tursunova)ga ajratilgan

mablag‘lardan maqsadli foydalanish, shahar Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (Mamadaliev)ga ajratilgan mablag‘larni maqsadli ishlatilishini nazorat qilish yuklatilsin.

4. Shahar hokimligi moliya bo‘limi (Mamadaliev)ga shahar mahalliy byudjetiga tegishli o‘zgartirishlarni kiritish, shahar g‘aznachilik bo‘linmasi (Amirov)ga mablag‘larni belgilangan tartibda o‘tkazilishini ta’minlash topshirilsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashining “Mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi“ (Sayfiddinova) va shahar hokimining birinchi o‘rinbosari v.v.b (Radjabov) zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi **F.Umarov**

Xalq deputatlari Samarqand shahar Kengashining
2023 yil 31 maydagi
VI-86-89-7-107-K/23-son qaroriga
1-ilova

2023-yil I-chorak yakuni bilan daromadlar rejasini orttirib bajarilgan qismi hisobidan amalga oshiriladigan tadbirlar HISOB-KITOBI

T/r	**Mablag‘ ajratiladigan tashkilotlar nomi**	**Amalga oshiriladigan tadbirlar nomi**	**Asos bo‘luvchi hujjatlar**	**Ajratiladigan mablag‘ miqdori (ming so‘m)**
1	Shahar hokimligiga	Respublika Ma`naviyat va marifat markazi shahar bo`linmasi va shahar "Manaviyat maskani" kutubxonasi(Tipografiya ko’chasi 39-uy) va Kitobxonlik madaniyatini targ’ib etishda faol ishtirok etgan fuqarolar uchun 1000 dona har xil turdagi badiiy kitoblar xarid qilish bilan bog‘liq xarajatlarga	Respublika Ma'naviyat va marifat markazi shahar bo‘linmasi boshlig‘i (N.Sadinova)ning 2023-yil 8-apreldagi bildirishnomasi	36 260,0
2		O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 6-yanvardagi O‘RQ-600-sonli "Davlat boji to‘g‘risida"gi Qonuniga asosan Shahar hokimligining FIB va iqtisodiy sudlari tomonidan ko‘rib chiqilgan 318 ta da'vo arizalari uchun to‘lanishi lozim bo‘lgan davlat boji qarzdorligini qoplash bilan bog‘liq xarajatlarga	Shahar MIBning 2023-yil 27-apreldagi 10/69-23-sonli xati	397 040,0
	Jami			**433 300,0**